



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 1-2 (920-921)  
8-yanvar, shanba  
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
mardan chiqqa  
bosqlagan

## OLIY TA'LIMDAGI YANGI BOSQICH

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Ta'lism tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib kelgan. Chunki inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash davlat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fan-tehnika va axborotdagi revolyutsiya inson va uning ilmiy-ma'rifiy potensialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi. Ta'lism yutuqlari va o'z sohasidagi ideal kadr zamonning eng katta ehtiyoji.

Davlat oliy ta'lism muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik berish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lism muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qarori qabul qilin-gan edi. Mazkur qarorga ko'ra, 2022-2023-o'quv yilidan boshlab moliyaviy mustaqillik berilayot-gan 35 ta oliy ta'lism muassasalariga akademik mustaqillik sohasida qo'shimcha vakolatlar berilm-oqda. Ya'ni, Vazirlar Mahkamasi ning oliy, o'rta maxsus va profes-sional ta'lism sohasidagi tegishli vakolatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligiga o'tkaziladi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot intsitutining moliyaviy mustaqil oliy ta'lism muassasalari ichida borligi mazkur qarorning mohiyatini chuqurroq anglashga yana-da mas'uliyat yuklaydi. Xo'sh, oliy ta'lism muassasalari moliyaviy mustaqilligi nima degani, tizimda nimalar o'zgaradi?

Moliyaviy mustaqillik beril-gan davlat oliy ta'lism muassasalari moliyaviy mustaqillik sohasida to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini ta'lism xizmatlari bo-zoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, bazaviy to'lov-kontrakt qiymatining 3 baravaridan ortiq bo'limgan miqdorda belgilash, talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish, ta'lism jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy profes-sor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnomaga asosida jalb qilish, o'z mablag'lari hisobidan talaba-lar uchun stipendiya va grantlar ajratish, xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilishda to'liq erkin huquqqa ega bo'ldi.

Moliyaviy mustaqil oliy ta'lism muassasalarida vasiylik kengashlari tugatilib, tarkibi kadrlar bu-yurtmachilari, jamoatchilik va-killari va homiylardan iborat (*70 foizdan kam bo'limgan tarkibda*) Kuzatuv kengashlari tashkil eti-ladi va ularga oliy ta'lism muassasalarini boshqarishda qator va-kolatlar beriladi. Endi moliyaviy

mustaqil oliy ta'lism muassasalari barcha ta'lism yo'naliishlari va bosqichlari bo'yicha bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdorini hisoblab chiqib, davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash uchun davlat byudjeti-dan ajratiladigan mablag'lar bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoriga nisbatan belgi-laydi. Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar qoldig'i muassasa ixti-yorida qoldiriladi. To'lov-kontrakt qiymati bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat, o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta'lism xizmatlari bozoridagi o'zaro raqobat asosida belgilanadi.

Oliy ta'lism muassasalarida Oliy ta'lism jarayonlarini boshqarish ax-borot tizimi (*HEMIS*)ning joriy yil 1-martga qadar "O'quv jarayon-ni boshqarish", "Ilmiy jarayonni boshqarish", "Ma'muriy jarayonni boshqarish" va "Moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish" qismlari va 1-mayga qadar "Ta'lism sifatini nazorat qilish" qismi joriy qilinadi. 2022-yil yakuniga qadar esa yagona "Elektron kutubxona" platformasi ishga tushirilishi ko'zdautilgan.

Tibbiyot oliy ta'lism muassasalariga ularning klinikalarida moddiy-texnik bazani mustahkam-lash, shuningdek, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshi-rish uchun o'zlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan zarur mablag'lar sarflashga ruxsat berildi. Sohalar bo'yicha imkoniyatlar taqdim etilgani ta'limdagi yutuqlarimizning yangi bosqichi sifatida bizni quvontiradi.

## ENDOKRINOLGIYA SOHASIDAGI YANGI SAHIFA

Inson sog‘lig‘i uning organizmi kabi hali to‘liq o‘rganilmagan soha bo‘lib, borliqda kechayotgan ijobjiy va salbiy jarayonlar unga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shuning uchun ham meditsina inson manfaati asosiga qurilgan davlatlar siyosatida muhim o‘rinda turadi. Yurtimizdagi inson salomatligi yo‘lidagi islohotlar buning yorqin misolidir.

2021-yilning 10-dekabr kuni Shavkat Mirziyoyev Endokrinologiya sohasidagi muammoli masalalar bo‘yicha selektr yeg‘ilishi o‘tkazdi. Davlatimiz rahbari so‘zining avvalini: “Respublikada endokrin kasalliklarini barvaqt aniqlash va davolashga 25 yil davomida e’tibor susayib ketgani ham adolatli haqiqat”, deya boshlarkan, keyingi yillarda bu sohada amalga oshirilgan samarali ishlarga ham to‘xtalib o‘tdi.

Ya’ni, so‘nggi uch yilda endokrinologiya sohasini takomillashtirishga qaratilgan alohida dastur amalga oshirildi. Endokrinologiya markazining viloyatlarda joylashgan 14 ta filiali moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun 3,5 million dollar ajratilgani, filiallarda maxsus bo‘limlar tashkil etilib, respublika markaziga murojaatlar 2 barobarga kamaygani, qariyb 5 ming nafar fuqaroning sarsongarchiligi va ortiqcha xarajatlarining oldi olinganligi, har yili 80 ming nafar bemor insulin bilan bepul ta’minlanayotgani endokrinologiya so-

hasidagi yutuqlarimizdir, deya ta’kidladilar Yurtboshimiz.

Hozirda Respublika endokrinologiya markazi faoliyati ko‘p tarmoqli shaklga o‘tkazilib, eng zamонавиу uskunalar bilan jihozlanadigan 600 o‘rinli yangi bino qurilayotgani ham sohadagi yangi dovon, shubhasiz.

Islohotlarga ko‘ra, ikki oy davomida joylarga chiqib, sohadagi haqiqiy ahvol, ham aholini, ham shifokorlarni qiyinayotgan muammolar o‘rganilgan. Kasalliklarning oldini olish borasida so‘nggi besh yilda endokrin kasalliklari 20 foizga ortib, ayniqsa, yoshlar orasida ko‘payayotgani aniqlangan. Shuning uchun Prezident selektr yig‘ilishida endokrinologiya xizmatini takomillashtirish bo‘yicha birinchi galadagi chora tadbirlarni, xususan, kelgusi yildan 40 yoshdan oshgan barcha aholi (*10 million nafar*) yiliga kamida bir marta manzilli endokrin skriningdan o‘tkazilishini, tibbiyot brigadalari va poliklinikalarining 14 mingdan ziyod oilaviy va ta’lim muassasalari shifokorlari endokrin kasalliklarni aniqlash va birlamchi yordam ko‘rsatishga o‘qitilishini, har bir tibbiyot brigadasi ekspress-testlar o‘tkazish uchun glyukometr bilan ta’minlanishi, endokrin kasalliklar aniqlangan aholining yagona elektron reyestri ishga tushirilishini, kelgusi yil 1-iyuldan 2 million nafar ayollar, 3–15 yoshdagi bolalar yod preparati bilan bepul ta’minlanishini, shuningdek

qandli diabed uchun metformin preparati 200 mingdan ziyod ehtiyojmand aholiga bepul tarqatilishini belgilab berdi.

Bugungi kunda yurtimizda har bir sohada jadal o‘zgarishlar amalga oshirilib, jarayon taqozosi o‘laroq yangi-yangi dovonlar, sohadagi yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda. Bularning barchasi hech shubhasiz xalq, insonlar uchun, sog‘lom fuqaroli jamiyat uchun. Endokrinologiya xizmatining takomillashtirilishi bo‘yicha o‘tkazilgan selektr yig‘ilishi ham aholining salomatligiga bo‘lgan e’tibor davlat siyosatida alohida o‘rin tutishining yorqin misolidir.

Ilm-fanning keng imkoniyatlari, yutuqlari maydonga kelayotgan bir paytda insoniyat salomatligiga jiddiy xavf soluvchi nomsiz va nomli og‘riqlar ham turli darajadagi murakkabliklarda bo‘y ko‘rsatayotgani zamondoshlarimizga yangilik emas. Har bir inson o‘z vujudining posboni. Shifokorlar esa millat salomatligiga daxldor kas egalari. Yurtimizda meditsina sohasiga qaratilayotgan e’tibor, Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan islohotlar vatanimiz ertasi uchun, sog‘lom kelajak uchun safarbarlikdir. Bu esa bir ustoz, fuqaro, millat vakili sifatida meni, har birimizni quvontiradi.

**Muborak AHMEDOVA,  
ToshPTI Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlaar bo‘yicha prorektor**

## VAZIR O'RINBOSARI TASHRIFI

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'li-da asosiy tayanchimiz bo'lgan azm-u shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblana-di. 2021-yil 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtas maxsus ta'lif vazirining axborot texnologiyalari va yoshlar masalalari bo'yicha o'rinnbosari Yusuf Absoatovning Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga tashrifi mana shu masala muhokamasiga bag'ishlan-di. Tashrif davomida ma'naviy-

ma'rifiy ishlar tizmini tubdan takomillashtirish, talabalarga yanada yaqinroq bo'lish hamda Prezidentimiz rahbarligida oliv ta'lif sohasida jahon standartlariga javob beradigan, sifatli ta'lif tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy ahamiyati har tomonlama muhokama qilindi.

Mehmonni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori, professor B.T.Daminov institutda talabalarning bilim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar va Innovatsiya markazining faoliyati bilan yaqindan tanishtir-di. So'ngra Vazir o'rinnbosari institutda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mas'ullar, dekan o'rinnbosarlari



hamda mazkur o'quv yilida faoliyatini boshlagan tyutorlar bilan uchrashuv-muloqotlarini ham o'tkazdi.

Uchrashuvda vazir o'rinnbosari bugungi kunda davlat miqyosida qaratilayotgan e'tibor natijasida yoshlarga yaratilayotgan sharoitlardan oqilona foydalanib kelajakda yetuk inson, yuqori malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlari bo'yicha o'zining tavsiyalarini berdi.

## “SAXOVAT” VA “MURUVVAT” INTERNAT UYLARIGA TASHRIF

Yurtboshimiz “Sahovat” va “Muruvvat” internat-uylarida sharoitni yaxshilashga, u yerda yashovchi nuroni va nogironligi bo'lgan shaxslarga alohida e'tibor qaratgan. Ularning holidan xabar olib turish uchun yaqin atrofdagi shifoxonalar, ta'lif muassasalari biriktirilgan hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasiga “Sahovat” uylaridagi barcha nuroniylarni har yili bir marta O'zbekistonning eng yaxshi sihatgohlarida sog'lomlashtirish vazifasi ham topshirilgan.

“Avvalgi me'yirlarni qayta ko'rib chiqib, bu joylarda yasha-yotgan fuqarolarimizning dorilarini ko'paytirish, oziq-ovqatlari sifatini o'zgartirish, taom tayyorlashda autsorsing tizimini yo'lga qo'yish kerak. Ularning holidan xabar olish uchun yaqin atrofdagi shifoxonalar, maktablarni biriktirish ham mumkun. Bu ham e'tibor, mehr-oqibat. Bemor

insonlarga e'tiborni kuchaytirsak, yanayam sog'ayadi”, deya ta'kidlagan Shavkat Mirziyoyev.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining mas'ul o'qituvchilari va talabalarining biriktirilgan Sirdaryo viloyatidagi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun faoliyat olib boruvchi “Muruvvat” internat uyiga tashrif uyuşhtirildi.

Institutning Xotin-qizlar kengashi raisi D.A.Usta-Azizova va kengashning fakultet mas'ullari internat uyi rahbari bilan uchrashib, internat uvida davolanayotgan bemorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Kelgisidagi hamkorlik mavzusida fikr almashildi. Institutning iqtidorli talabalari tomonidan muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar tashkil etish rejalashtirildi.

Mehr, muruvvat bu – biz bir-birimizga berishimiz zarur bo'lgan qarz. Bu tuyg'uga hamma birdek daxldor. Xoh yosh bo'lgan, xoh keksa, xoh sog'lom bo'lsin-u xoh xasta. “Muruvvat” uvida mehnat qilayotgan jamoaning har bir xodimi mana shu ezzulik bilan yonma-yon ekan. Zero, savob ishni har kim har kuni qilishi kerak, o'zaro mehr-oqibatli, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish, yetim bolalarining boshini silash hamda mehr-muhabbatli bo'lish donishmand xalqimizning asriy urchodatlaridan biridir. Yoshlarni shu tuyg'ularga oshno tarbiyalash qadriyatlarimiz oldidagi burchimiz.

**D.Usta-Azizova,  
ToshPTI xotin-qizlar qo'miytasi raisi**



## ОЛИМПИАДА В САМАРКАНДА



Олимпиада, проведённая в Самарканде прошла на высшем уровне. Спасибо ректору и все-

му преподавательскому составу Самаркандского медицинского института за хорошую организацию. Нас очень хорошо встретили и на протяжении двух дней на все мероприятия всегда сопровождали ответственные лица. Мы смогли познакомиться со многими ребятами, не только из нашей страны, но также и со студентами из соседних стран. Было очень приятно, что на данную олимпиаду также приехали ректоры многих зарубежных вузов. Отдельно хотелось бы сказать о торжественном вечере, проведённом 14 декабря. После всех тревог по поводу олимпиады, это была прекрасная возможность расслабиться и отдохнуть.

Теперь о подготовки к олимпиаде. Когда я узнала, что будет проводиться такая олимпиада, то очень обрадовалась. Ведь в последние 2 года из-за пандемии все олимпиады проводились онлайн, а тут такая возможность в онлайн формате проверить свои знания.

Да, добиться призового места не легко, нужно много учиться, читать книги. Возможно с первого раза и не получится. До этого я много раз участвовала в онлайн олимпиадах и не получала призовых мест, но это служило мне мотивацией идти дальше.

**Назима САЙДОВА,**  
студентка 618-группы  
1-педиатрического факультета

## ПОЧЕМУ ИМЕННО ЛАТИНСКИЙ?



Как известно, 14 декабря прошедшего года состоялась II-междунородная олимпиада в Самарканде, где можно было выбрать клинические либо базовые медицинские предметы. Всем студентам, пожелавшим участвовать, был предоставлен выбор: онлайн либо онлайн участие. Соответственно, я выбрала онлайн участие, так как олимпиада проводилась не в моём родном городе и заняла II призовое место.

Возникает вопрос «Почему именно латинский язык?!». Могу с уверенностью сказать, что как только мы увидели объявление об олимпиаде и познакомились со списком предоставленных предметов, сразу же выбрали, с одногруппницей, этот предмет, и соответственно, подошли к преподавателям с кафедры (Березовская Раиса Александровна и Махкамов Миркамил Хусанович) с предложением участвовать. Спасибо им огромное за то, что они поддержали нас и подготовили к «Состязаниям».

Почему же я выбрала латинский язык, будучи студенткой 2-курса, которая закончила и закрыла этот курс?! Каждый может ответить логично: так как я его «Полностью» закончила. Конечно же, это одна из весомых причин, так как не пройдя этот курс до конца, я бы не нашла в себе уверенность сделать такой шаг. Но другая значимая причина – мой интерес к предмету, плюс то, что я придаю этому предмету большое значение. Латинский язык - не секрет, что он является одним из основных базовых наук, на которых держится медицина. А притяжение к этому предмету появилось у меня еще, будучи первокурсницей на уроках

Березовской Р.А – моей первой преподавательницы по этой дисциплине. Она очень чётко и внятно давала все свои знания, будто «По полочкам раскладывала». Естественно её вклад в мою победу тоже велик.

А что касается самой интересной части, т.е. олимпиады – то могу сказать, что это была мини – интрига. Она состояла из 2-х частей: письменной – тест и устной по практическим ситуационным задачам. После тестов, когда мы прошли на II тур, а точнее на «Устный тур», я очень волновалась и никак не решалась «брать» микрофон в буквальном смысле слова. Были участники из разных стран, очень грамотные и уверенные в себе студенты. Но всё же я поняла, что мой черёд наступил и «Взяла» микрофон- устный тур состоялся на платформе «ZOOM». Как стало известно, спустя несколько недель после олимпиады, я заняла II-призовое место. Эту новость я услышала до нового года – это было хорошим подарком для меня, а также дало столько мотивации и духа. Я думаю, это даст мне в будущем свершение новых высот и продвижения в учёбе.

**Асила ХАЛИКУЛОВА,**  
студентка II-Педиатрического  
факультета

## TIBBIYOTCHILAR AVLODINING UCHINCHI VAKILI

### Iqtidorli talaba bo‘lish qiyinmi yo oson?

Nima deb o‘ylaysiz, biror-bir mashxur sulolaning uchinchi avlod vakili bo‘lish osonmi yo qiyinmi? Siz oson deyishingiz mumkin. Va gapingizni quyidagicha tasdiqlaysiz: Demak oilaviy muhit bu insonga katta ko‘mak bergen, avvalgi avlod vakillari esa o‘z davomchisiga tirkak bo‘lganlar. Avloddan o‘tgan bilim va tajribalar uni bu soxaga qiziqtirgan, uning soxaga qiziqishi va rivojlanishi uchun bebahomil bo‘lgan. Bu mantiqiy dalillar, albatta. Ammo ular bugungi qahramonimiz Hasanxo‘ja Abidov taqdirida ham muhim ahamiyat kasb etishgan. Shuningdek bunday xurmatli shifokorlar sulolasining davomchisi bo‘lish har bir inson zimmasiga katta mas’uliyat yuklashi ham tabiiy. Tanish-bilishlar, atrofdagi yoshlar, do’stlar va xamkasabalar orasida sening yutuqlaring, aynan o‘z peshona tering bilan qo‘lga kiritilganiga bir oz bo‘lsa - da shubha bilan qarashlari ehtimoli yo‘q emas.

Hasanxo‘ja aynan shuni isbotlash uchun ham o‘z ustida timimsiz ishladi.

### OTA

Kasb tanlashda esa ota kasbi uni mактабда та’лим оlayotgan vaqtidan o‘ziga rom qilgan edi. Kunlardan bir kun u otasi faoliyat yuritayotgan Respublika Ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga borganda otasining bemor qabul qilish jarayoniga duch keladi. Otasi nihoyatda kuyunchaklik bilan katta yoshli kishiga nevarasining kasali, uni davolash haqida batafsil so‘zlayotgani, nevarasi sog‘ayishi uchun ko‘p harakati zoye ketgan kishi ko‘zida

umid uchquni paydo bo‘lganining guvohti bo‘ladi. Uning xursand-chiligini ko‘rgan Hasanxo‘jada ota kasbiga xavas uyg‘onadi. Keksa kishi esa tinmay Hasanxo‘janing otasiga rahmat aytar va duo qilar, ko‘zlarida hatto yosh ham yiltiradi. Hasanxo‘ja avvallari negadir ota kasbining bunchalik ulug‘vor ekanligini tushunib yetmagan bo‘lsa, shu uchrashuv tufayli uning miqyosini anglaydi va o‘zi uchun ham bo‘lajak kasbni tanlaydi. Chunki insonlar dardiga malham bo‘ladigan kasbdan ulug‘vorrog‘ini topa olmasligini tushunib yetgan edi. U hayoti davomida duolar olish istagi bilan yondi. Axir dono xalqimiz “Oltin olma, duo ol” deb bejiz aytmagan-ku.

Shuning uchun ham otasi ikki egiz o‘g‘il Hasan va Husanlarni yonlariga olib, kim qaysi kasb tanlashi haqida so‘raganlarida ukasi Husan bank sohasini tanlashini qat’iy aytadi. Hasanxo‘ja esa tibbiyot institutiga kirish istagi borligini bildiradi.

Shunda otasi Alisher aka unga qarab: “Juda mas’uliyatli kasb tanlaysan, o‘ylab ko‘r, bu kasbingda har daqiqa mas’uliyatni nihoyatda qattiq his qilishing, o‘z ustingda muntazam ishlapping, oromingdan ham, gohi o‘z ishlarindan kechib ham bemorga yordam uchun os-hiqishing kerak bo‘ladi,” – dedi. So‘ng yana qo‘shib qo‘ydi: “Yana bir gap, hayotingda mansab emas, kasbing birinchi o‘rinda turishini xohlardim. Agar shunday qilsang e‘zozga ham, xalq mehriga ham sazovor bo‘lsan. Undan keyin bu ishing bilan bobongning ruhini ham shod qilasan”.

### BOBO

Afsuski, Hasanxo‘ja bobosini ko‘rmagan. Ammo o‘zini tanib-

diki, bobosini unga ibrat qilib ko‘rsatishgan.

Bobosi Abidov Matlabxodja Murodovich mamlakatimizda “Dermatovenerologiya” (*Teri-tan-nosil kasalliklar*) xizmatiga asos solganlar. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tashkilotchilaridan, mohir shifokor, olim, ustoz-uzoq vaqt davomida Dermatologiya va venerologiya ilmiy tekshirish instituti direktori sifatida faoliyat yuritgan inson. Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining asoschisi. Bugungi kunda ushbu muassasa-da Matlabxodja Murodovichning byustlari o‘rnatalgan. Har safar Hasanxo‘ja ushbu markaz binosida bo‘lganida shu byustga havas bilan karab, o‘zi ham bobosiga o‘xshab el e’tirofidagi inson bo‘lishni niyat qiladi. Hasanxo‘ja yoshligida bobosini ko‘rmagani uchun uning nechog‘li katta miqyosdagi inson ekanligini tasavvur qila olmas edi. Ammo institutga o‘qishga kiganidan keyin bu miqyos naqadar yuksak ekanligini his qildi. Nima uchundir Hasanxo‘janing ismi-sharifini eshitgan o‘qituvchilar va olimlar doim Hasanxo‘jaga yordam berishga oshiqishar edi.

Hasanxo‘ja avval buning sababini bilmasa-da, keyinchalik tushundi. Bu yerda bobosiga xos bo‘lgan ba‘zi jihatlarni ham bilib oldiki, bobosi uning ko‘z o‘ngida yanada ulug‘vor ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bobosi juda ko‘pchilikka beminnat yaxshiliklar qilar ekanlar. Yo‘l-yo‘riqmi, biror boshqa maslahatmi yoki yechilmagan masalami, iltimosmi, qo‘llaridan kelgancha yerda qoldirmaslikka harakat qilar ekanlar. Keyinchalik o‘sha odam bobosi tufayli erishgan yutug‘i haqida so‘zlasa

Matlabxodja Murodovich “Sizzdan minnatdorman” degan so‘zni takrorlar ekanlar. Bu Hasanxo‘janing bobosigagina xos so‘zda ham quvonish, ham rag‘bat, ham rahmat bo‘larkan. Yana bir jihat: bobosining katta kutubxonasi bo‘lib, Hasanxo‘janing dadasi uni yanada boyitgan.

### KUTUBXONA

Hasanxo‘ja o‘zini taniydi, dadasi qayerga borsa kitob ko‘tarib kelardilar. O‘zi kitob ko‘p bo‘lsa, hadeb kitob olib kelib nima qilar ekanlar-a? Hasanxo‘ja yoshlida shunday o‘ylar edi, chunki dadasi har kitob olib kelganlarida “Bu kitoblar sizlar uchun” derdilar-da. Hatto ikki aka-uka dadasiga bir kun “Dadajon, bu kitoblar o‘rniga o‘yinchoqlar olib kelsangiz yaxshi edi”, deyishgani esida. Ammo bugun bu kitoblarni nechog‘li ahamiyatli ekanligini har daqqaq his qiladi. Oilaviy kutubxonadagi nafaqat ilmiy, balki badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar uni oilasi bilan birga tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shti, bo‘lajak kasbi uchun narvon bo‘ldi. “Qizikarli biologiya”, “Qiziqrarli kimyo”, “Bolalar ensiklopediyasi”, “U kim, bu nima?” ensiklopediyalari uning maktabdagisi bilimlariri o‘zlashtirishni juda zavqli jarayonga aylantira oldi. U o‘qigan kitoblari bilan do‘satlari, yaqinlari bilan o‘rtoqlashishga shoshildi. Shunday qilib beminnat maslahatchi va ustoz sanalgan kitoblarni varaqlagani sayin bilimi oshdi, qiyagan savollariga javob topa oldi.

### TAHSIL

Ana shunday zavqli onlar, bilim olish va dunyoqarashini o‘stirish bilan o‘tgan maktab yillardan so‘ng u hujjatlarini Toshkent pediatriya tibbiyat institutiga topshirdi. Bakalavriat bosqichida ham o‘quv, ilmiy, jamoatchilik ish-

lar bilan to‘la buldi. Bu mehnatlari munosib baholanib, Hasanxo‘ja 6-bosqichda Ibn Sino nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldi.

So‘ng imtiyoz bilan, imtihon va tanlovsiz magistraturaning “Dermatovenerologiya” yo‘nalishiga davlat granti asosida qabul qilindi va o‘z ilmiy ishini davom ettirishga muvaffaq bo‘ldi.

Uning magistrlik ishi bemorlarda endogen intoksikatsiyani e’tiborga olgan holda teri leyshmaniozi kasalligining klinik xususiyatlarini o‘rganish va davolash usullarini takomillashtirishga bag‘ishlandi. Ishidan asosiy maqsadi esa O‘zbekiston Respublikasida teri leyshmaniozi kasalligi bilan hastalangan bemorlarni o‘rganish, kasallikni erta tashhislash, yangi diagnostik indeksi yordamida kasallikning og‘irlik darajasini tezroq aniqlash orqali vaqt sarfini kamaytirish, yangi davolash usullarini qo‘llash va davolash samaradorligini oshirish bo‘ldi.

Ilmiy ishi davomida u dunyo tan olgan ilmiy jurnallar, shu jumladan, Scopus ilmiy ma’lumotlar bazasi ro‘yxatidagi jurnallarda va xalqaro konferensiyalarda 150 dan ziyod maqola va ilmiy ishlari bilan qatnashdi, o‘quv-qo‘llanma chop etdi. U ustozlari bilan taklif etgan teri leyshmaniozi kasalligini og‘irlik darajasini aniqlovchi yangi “CLASI” deb nomlangan indeks uchun mualliflik patentiga ega bo‘ldik. Bundan tashqari, ilmiy ishi natijalari to‘g‘risida turli xalqaro anjumanlarda, shu jumladan, Rossiya va Qozog‘iston davlatlaridagi ilmiy anjumanlarda ma’ruza qildi.

Bugungi kunda Hasanxo‘ja magistraturani tamomladi. Ammo magistratura bosqichdagi samarali faoliyati natijasida 2020-2021-

o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldi.

### ORZU

Hozirgi kunda u institutda rektorning yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – institut yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchili palatasi huzuridagi Yoshlar Parlamenti a’zosi.

Hasanxo‘janing fikricha bugungi kunda, har qanday sohaning rivojlanishiga eng katta to‘siq bo‘layotgan omil – bu unda yetarli darajada zamonaviy axborot texnologiyalar tadbiq etilmaganligi.

Ushbu muammoning yechimi sifatida butun dunyoda amalda oshirilayotgan raqamlashtirish jayroniga kuchli kirishish lozim deb biladi. U tibbiyot sohasini raqamlashtirishni kengaytirish maqsadida ushbu sohaga qisqa muddat ichida, lekin shu bilan birga puxta ishlangan va sifatli axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etishi kerak deb hisoblaydi.

Albatta, bularning barchasini kim qiladi? dega savol tug‘iladi? Bu savolga javoban, Hasanxo‘ja “Biz yoshlar hozir, bugun shu masala ustida ishlab, o‘zimizni qiyashimiz lozim. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizning har bir sohasi kabi sog‘liqni saqlash sohasida ham inson resurslarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishimiz lozim. Hurmatli Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Kadrlar hamma narsani hal qiladi”. Bu degani tibbiyot xodimlari bilimini oshirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishni yanada yangi bosqichga olib chiqishimiz kerak”, deydi.

Biz esa Hasanxo‘jaga barcha ishlariada omad tilaymiz.

**Kavsar TURDIYEVA**

## MO'JIZANI O'ZIMIZ YARATAYLIK

Yangi yil juda ajoyib bayramda. Har bir kishi uchun u bir olam quvonch olib keladi. Lekin hammadan ko'proq bu bayramda bolalar zavqlanishadi. Shuning uchun uni deyarli har bir bola, orziqib kutadi. "Sizning sevimli bayramingiz nima?" degan savolga "Yangi yil" deb javob beradi. Ular aynan Yangi yil bayramida mo'jizalar sodir bo'lishiga va orzular amalga oshishiga ishonadi.

Biz, TashPTI 1-kurs Davolash fakulteti talabalari ustozlar bilan birlgilikda bolalarga quvonch ulashish va yangi yil shukuhini hadya qilish maqsadida, № 105 Yordamchi maktab-internat bayrami tashkil qildik.

Dekabr oy, hamma yangi yil kayfiyatida. Dugonalarimiz bilan bolalikda yangi yilni qanday nishonlaganimiz, nima sababdan u bizning sevimli bayramimiz ekanligi haqida suhbatlashyotgan bir paytda, Sabinaning xayoliga to'satdan ajoyib fikr kelib qoldi. U imkoniyati cheklangan bolalarni kirib kelayotgan bayram bilan tabriklashni taklif qildi. Bu g'oyani hammamiz bir ovozdan ma'qulladik. Qaysi maktab-internatga borishimiz haqida ko'p o'yashga to'g'ri kelmadi. Sabinaning onalari orqali O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi 105-maktab-internatida konsert berayotganligi haqida xabar



topdik va ular bilan birlgilikda bayram dasturini o'tkazishni kelishib oldik. Bu haqda fakultetimiz rahbaryatiga bildirgan edik, barcha talabalar va yetakchilar ishtirok etishni xohlashdi. Darslardan so'ng yig'ilib o'zaro fikrlar almashdik, shu bahonada barchamiz tanishib, do'stlashib oldik. Ko'p o'ylab, bolajonlarga shirinliklar sovg'a qilishga qaror qildik. Belgilagan sanamizdan bir kun avval sovg'alarni xarid qilib, ertasiga birlgilikda 300-ta sovg'ani qadoqladik. Tashkiliy jarayon barchamizni birlashtirdi, bizga zavq va unutilmas hissiyotlar bag'ishladi.



Manzilimizga yetib borgach, bolajonlarga dasturxon tuzashni boshladik. Ularni intiqib kutilgan bayram bilan qutlashga Qorbobo, Qorqiz va estradamiz san'atkorlarini tarlif qildik. Ular biz tayyorlagan sahna ko'rinishlari, qo'shiq va raqslarni sahnadan ko'z uzmay, miriqib tomosha qilishdi. Bayram juda maroqli va mazmunli o'tdi, bolajonlar bilan bayram archasi atrofida raqsga tushdik, qo'shiqlar kuyladik, quvnoq o'yinlar o'ynadik. Dastur yakunida Qorbobo bilan ularga sovg'alar hadya etdik. Bolajonlar xursandchiligidan bizni tinmay quchoqlab, minnatdorchilik bildirishdi. Ularning xursandligining chegarasi yoq edi. Bizni esa bu beg'ubor ko'zlardagi quvonch, yuzlaridagi tabassum juda sevintirdi. Bu bayram nafaqat bolajonlar uchun, balki biz uchun ham unutilmas lahzalarga boy bo'ldi!

Biz hayotda mo'jiza sodir bo'lishini kutib o'tirish emas, balki uni o'z qollarimiz bilan yaratishimiz va boshqalar bilan bo'lishishimiz kerakligini, baxtli bo'lish uchun atrofimizdagи kichik va arzimas narsalarning qadriga yetish kifoya ekanligini anglab yetdik.

**Dono MUHAMMATOVA**  
**Davolash fakulteti**  
**114-guruh talabasi**

## TOSHTI TALABALARI START-UP TANLOVDA SOVRINLI O'RINNI OLISHDI

IT Park axborot texnologiyalari sohasidagi Students Cup 2021 startap tanlovi g'oliblarini e'lon qildi.

Tanlov IT Park tomonidan O'zbekistondagi universitetlar qoshidagi inkubatsiya markazlari, shuningdek, IT Akademiyasi va Dubai Future Foundation (BAA) bilan hamkorlikda tashkil etildi. Bu yil musobaqa ikkinchi marta o'tkazildi.

11-dekabr kuni bo'lib o'tgan yakuniy taqdimotda respublikaning barcha hududlaridan 18 ta loyiha ishtirok etdi. Har bir ishtirokchi 5 daqiqa ichida loyihasini taqdim etishi, so'ngra 3 daqiqa davomida hakamlar hay'atining savollariga javob berishi kerak edi.

Tanlov natijalariga ko'ra, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining "Lalu.uz" loyihasi

3-o'rinni va 4000 AQSh dollari miqdoridagi pul mukofotiga sazovor bo'ldi.

Lalu.uz – homilador ayollar va yangi tug'ilgan onalarga mo'ljallangan mobil ilova bo'lib, ona va bola salomatligini kuzatib boradi, homiladorlik va bola parvarishi haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi.

*Hasanxo'ja Abidov*

## YANGI O'ZBEKISTON–YANGI G'OYALAR



17-dekabr kuni 1-Talabalar turar joyida "YANGI O'ZBEKİSTON–YANGI G'OYALAR!"

deb nomlangan yangi yil bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbida 1-Pediatriya fakulteti dekani A.A.Rahmatullayev, dekan muovinlari, institut tyutorlar jamoasi, yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan muovinlari, talabalar turar joyi pedagog-tarbiyachilar, professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etishdilar.

Tadbirda talabalar turar joyi "Pediatri" teatr jamoasi va faol talabalari tomonidan tayyorlangan milliy urf-odatlarimiz mujassamlashtirilgan sahna ko'rinishlari, qo'shiqlar, raqslar, turli qiziqarli o'yinlar namoish etildi.

*Muruvvat AKBAROVA  
Otabel JUMAYEV  
I-TTJ pedagog-tarbiyachilar*

## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:*

**DOTSENTLAR:** Akusherlik va ginekologiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Klinik farma-kologiya; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya.

**KATTA O'QITUVCHILAR:** Ijtimoiy fanlar.

**O'QITUVCHILAR:** Ijtimoiy fanlar.

**ASSISTENTLAR:** Patalogik anatomiya; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish; Akusherlik va ginekologiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Sud tibbiyoti, tibbiy huquqi; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Patologik fiziologiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Neontogeniya; Yuqumli kasalliklari.

**Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekat. 08.01.2022.**

 <b>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI</b> ORGAN TRUDOVOTO KOLLEKTIWA TAŞKEŃTSKOGO PEDIATRICHESKOGO MEDITSINSKOGO INSTITUTA	<b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, <b>Nashr uchun mas'ul:</b> Sh. Abdushoshimova	<b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o'rincbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev	Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxtagta olingan.  Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223
Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.			